

## **OLIY TA'LIMDA MAK TABGACHA TA'LIM TALABALARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Alimova Zulfiya Karimovna

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti,

«Maktabgacha ta'lism» kafedrasi katta o'qituvchisi

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

## **INCREASING THE EFFICIENCY OF THE PROCESS OF PREPARING PRESCHOOL STUDENTS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY IN HIGHER EDUCATION**

Alimova Zulfiya Karimovna

Shahrisabz State Pedagogical Institute,

Senior teacher of the Preschool Education department

Uzbekistan, Shakhrisabz city

### **Abstract**

In fact, there is talk about further improvement of the pre-school education system, ensuring that the educational process of the mature generation is properly implemented by educators, and effectively organizing the process of improving their qualifications.

**Keywords:** education, method, preschool education, curriculum

Maktabgacha ta'lism uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lismni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lism tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lism bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti.

Aytish kerakki, bu o'ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning doimiy e'tiborida bo'lmoqda. 2017-yil 9-sentyabr kuni qabul qilingan "Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasidir.

Qarorda maktabgacha ta'lismi boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTTlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Unga ko'ra, maktabgacha ta'lism tizimini tanqidiy o'rganish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu

komissiya maktabgacha ta’lim sohasidagi qonunchilik va undagi bo‘shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag‘batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va ularning malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o‘rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan.

Ayniqsa, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o‘rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

2018-yil 1-yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishi ham sohada o‘ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo‘sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunni 8-moddasida [1.] “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga ularni intellektual, ma’naviy axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir deb aytib o‘tilgan”i bois, maktabgacha ta’lim tashkilotini zamonaviy shakllarini joriy etish hamda ta’lim-tarbiya sifatini yanada oshirish bugungi kun talabi bo‘lib qoldi. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risi”dagi 595-sonli qonuni [2.] ijrosini ta’minalash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qaroriga muvofiq Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning “Davlat standarti” [3.] qabul qilinishi belgilab qo‘yilgan. Shu nuqtai nazaridan, Davlat standartining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’limning namunaviy o‘quv rejasi;
- davlat standartini joriy etish hamda unga rioya etilishini nazorat qilish;

- davlat standartining tarkibiy qismlari, jumladan:
  - ✓ ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari;
  - ✓ maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi;
  - ✓ maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlashning me’yorlari ishlab chiqildi.

E’tirof etish joizki, ta’lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limda jadal o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim Konsepsiyasida ular quyidagicha izohlanadi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining xuquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o‘tmoqda;
- nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i kengaymoqda; ta’limning ilg‘or texnologiyalari joriy etilmoqda;
- xodimlar;
- malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;
- qisqa muddatli guruuhlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda, maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada kuchaymoqda. Biroq ushbu jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatish uchun uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar ham maktabgacha ta’lim muassasalardagi ta’lim jarayoni va uning samaradorligini ta’minalash yo‘nalishidagi maxsus tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darajasi hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Tahlil mamlakatimizda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini tizimida sog‘lom, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilganligini ko‘rsatdi. Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirishga, ularni qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, Davlat byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Oxirgi 3 yilda ajratilgan mablag‘larning hajmi 2 baravar ortdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va

axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darajasi hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari ushbu sohada bir qator foydalanilmagan imkoniyatlar va ishga solinmagan zaxiralar mavjudligini ko‘rsatdi. Maktabgacha ta’limdagi o‘zgarishlar tarbiyachilarga maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish metodlari va shakllarini tanlab olish erkinligini beradi. Zamonaviy o‘qitishning asosiy natijasi bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, bunga ko‘ra bola uning rivojlanishiga va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga qanchalik yordam bera oladigan nimalarni o‘zlashtirgani e’tiborga olinadi. Pedagog tomonidan tanlab olingan o‘qitish shakllari intellektual jarayonlarning shakllanishiga yordam berishi, masalalarni ijodiy hal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishi, mustaqillikni va ma’suliyatni o‘rgatishi, bolalarni o‘z xulq-atvorini boshqarishni mashq qildirishi lozimdir. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib sanaladi. U sog‘lom va rivojlangan bola shaxsining shakllanishini ta’minlashi, tizimli o‘qitishga tayyorlash bilan unda o‘qish-o‘rganishga intilishni uyg‘otishi zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bolalarni har tomonlama intelektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni mакtabga sifatli tayyorlashda zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etishdan iboratdir. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba’zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo‘lganidek, uni qisqa muddat ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga, kelishishga o‘rgatish ham mushkul bir vazifadir. Bu borada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining savodxonligi muhim sanaladi va bugungi kun talablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3261-sonli qarori. 2017-yil, 9-sentyabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5198-PF-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi 637-sonli qonuni. 2020-yil, 23-sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risi”dagi 595-sonli qonuni. 2019-yil, 16-dekabr.
5. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qaroriga muvofiq Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning “Davlat standarti”.
6. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim Konsepsiysi. T. 2019-yil.
7. Алимова З. Каландарова Д. Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях. Иллераука М.:2020. С. 30-35.

8. Imomov M, Alimova Z, Arzikulova S, Alikulova M, Kobilova A. The Importance of Interactive Methods and Logical Games in Preparing Students for Professional Pedagogical Activities. *Journal of Positive School Psychology*. 2022, Vol. 6, No. 11, <http://journalppw.com>. P. 1293-1296.
9. Alimova Z. Rasulova I., Xomutjonova F. The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 7 No. 12, 2019. ISSN 2056-5852. Progressive Academic Publishing, UK Page 168 [www.idpublications.org](http://www.idpublications.org). P. 168-172.
10. Alimoma Z. Education of Children through National Mobile Games in Preschool Educational Institutions. Impact factor jurnal 2/1320. Vol 11, issue 5, May 2021. *Academicia* an international multidisciplinary research journal. P. 486-490.
11. Alimova Z. Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of Their Activities. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ)* ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 1, Jan. 2022. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1014>. P. 268-272.
12. Kalandarova D. *Journal of Positive School Psychology* 2022, Vol. 6, No. 9, <http://journalppw.com>. P. 4395-4398.